



XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI Q A R O R I

2022 йил «28» апрель

VI-47-34-11-166-K/22

Кўкон шаҳар ҳокимлиги

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning raisligida 2020 yilning 8 oktyabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan muhim vazifalar hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 20 yanvardagi 01-22-14/2xdfu-sonli topshiriq xati hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 145-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qo'qon shahrida "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimining 3-bosqichida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2020 yilning 8 oktyabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ayollarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik yordam berish, kasb-xunar o'rganishga ishtiyoqi bo'lgan ishsiz xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilab berilgan muhim vazifalar hamda bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 20 yanvardagi 01-22-14/2xdfu-sonli topshiriq xati ijrosini ta'minlash maqsadida 2021 yilda tumanda ikki bosqichda "Ayollar daftari" ro'yhatlari shakllantirilib bir qator ishlar amalga oshirildi. 2021 yil 29 dekabr kuni Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab quvvatlash bo'yicha Respublika komissiyasi kengaytirilgan yig'ilishi o'tkazildi. Mazkur yig'ilishning 8-sonli bayoni ijrosini tumanda ta'minlash maqsadida xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Nizom va "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi

to'g'risida"gi Namunaviy nizom loyihalari asosida tumanda 15 nafardan iborat, har bir mahalla fuqarolar yig'inlarida 8 nafardan iborat ishchi guruhlar tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 apreldagi 250-sonli qarori hamda xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda xalq etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Respublika komissiyasining 2021 yil 29 dekabr kungi kengaytirilgan yig'ilishning 8-sonli bayonida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda "Ayollar daftari"ning 3-bosqichi shakllantirilgan bo'lib, Xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashining 2022-yil 9-fevaldagi VI-43-17-11-166-K/22 -sonli qarori bilan tasdiqlangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 mart kungi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 145-sonli qarorining 4-ilovasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 apreldagi 250-sonli qaroriga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 mart kungi 145-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Ayollar daftari"ning 3-bosqichi qarorda belgilangan tartibda ko'rib chiqildi. "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimining 3-bosqichi ro'yxatiga kiritiladigan ehtiyojmand xotin-qizlar ro'yxati shakllantirildi.

Qo'qon shahrida jami xonadonlar soni 53307 ta bo'lib, aholi soni 253251 nafarni shundan xotin-qizlar 128746 nafarni tashkil etadi.

Shahardagi mavjud 68 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida 30 yoshdan oshgan ayollar soni 49227 nafar. 2022 yil yanvar oyida shahardagi barcha (68 ta) mahalla fuqarolar yig'inlarida "Ayollar daftari"ning 3-bosqichini shakllantirish maqsadida 30 yoshdan oshgan 49227 nafar xotin-qizlardan 48947 nafariga anketa so'rovnomalari to'ldirildi. 280 nafar xotin-qizlarga anketa so'rovnomalari to'ldirilmadi (tashqi migrasiyadagi ayollar soni- 264 nafar, jazo muddatini o'tayotgan ayollar soni-16 nafar).

"Ayollar daftari"ning 3-bosqichi, 1 va 2 bosqichlaridan farq qilib, 3-bosqichida 6-toifa bo'lib, bu toifalar aniq belgilab berilgan.

Shaharda 2022 yil 18 aprel xolatiga "Ayollar daftari"ning 3-bosqichiga kiritish maqsadida 5741 nafar xotin-qizlarning ro'yxatlari shakllantirildi va toifalar bo'yicha belgilandi. Xususan, 1-toifa Ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar 105 nafar, 2-toifa Tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar

235 nafar, 3-toifa Boquvchisi bo‘lmagan extiyojmand xotin-qizlar 2994 nafar, 4-toifa Ijtimoiy yordamga muxtoj I va II gurux nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar 1294 nafar, 5-toifa Uy joyga muxtoj extiyojmand xotin-qizlar 418 nafar, 6-toifa Qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud extiyojmand xotin-qizlar nogironligi bo‘lgan farzandini parvarishlayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar 695 nafarni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi “xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va xal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-sonli qaroriga muvofiq “Ayollar daftari”ga 30 yoshdan oshgan 6 ta toifaga kiruvchi xotin-qizlar yanvar oyida ro‘yxatga olinadi va dekabr oyida to‘liq davlat ta‘minotiga olinganda, o‘z arizasiga ko‘ra, “Ayollar daftari”ga noqonuniy kiritilganligi aniqlanganida, boshqa davlatlarga doimiy yashash uchun chiqib ketganida, sudning ozodlikdan maxrum etishni nazarda tutuvchi xukmi qonuniy kuchga kirganida, shaxs vafot etgan taqdirda yoki sud qarori asosida bedarak yo‘qolgan deb topilganida chiqariladi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning individual dasturga kiritilgan masalalari to‘liq xal etilgunga qadar ularni “Ayollar daftari”dan chiqarishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sessiya kun tartibidagi ushbu masala yuzasidan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Qo‘qon shahri Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning raisligida 2020 yilning 8 oktyabr kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan muhim vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 145-sonli qarori ijrosini ta‘minlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar, Qo‘qon shahridagi xotin-qizlarni “Ayollar daftari” ro‘yxatiga yangilarini kiritish ishlari to‘g‘risida shahar hokimi o‘rinbosari B.Xasanovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin va tasdiqlansin.

2. O‘tkazilgan xatlov natijalariga ko‘ra 1-toifa Ijtimoiy himoyaga muhtoj

ishsiz xotin-qizlar 105 nafar, 2-toifa Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan extiyojmand xotin-qizlar 235 nafar, 3-toifa Boquvchisi bo‘lmagan extiyojmand xotin-qizlar 2994 nafar, 4-toifa Ijtimoiy yordamga muxtoj I va II gurux nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar 1294 nafar, 5-toifa Uy joyga muxtoj extiyojmand xotin-qizlar 418 nafar, 6-toifa Qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud extiyojmand xotin-qizlar nogironligi bo‘lgan farzandini parvarishlayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar 695 nafar (sektorlar kesimida 1-sektordan 1352 nafar, 2-sektordan 1492 nafar, 3-sektordan 1183 nafar, 4-sektordan 1714 nafar) bo‘lib, jami 5725 nafar xotin-qizlar “Ayollar daftari”ga kiritilsin.

3. “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi shahar Vasiylik kengashining Tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Sektor raxbarlari va shahar hokimi o‘rinbosari B.Xasanovning axboroti asosida “ayollar daftari”ga kiritilgan ayollar bilan toifalar kesimida ishlarni tashkil etish, olib borilayotgan ishlar xaqida sessiyalar kun tartibiga masalalar kiritib borish va xar bir ayollar uchun individual yondashuv asosida ishlarni tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Shahar kengashining deputatlariga toifalar bo‘yicha “ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan MFY raislari, MFYlardagi hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollari tizimli ish tashkil etishlari yuzasidan jamoatchilik nazoratini olib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-qo‘vvatlash bo‘limi boshlig‘i B.Po‘latovga MFYlar raislari bilan hamkorlikda “ayollar daftari” asosida ishlarni tizimli tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qarorni qabul qilinishi munosabati bilan Qo‘qon shahar Kengashining 2022-yil 9-fevaldagi VI-43-17-11-166-K/22-sonli qarorning 2-bandi bekor qilinsin.

8. Xalq deputatlari shahar kengashining doimiy komissiyalari raislariga mazkur qaror ijrosini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Usmonov

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar
Kengashining
2022 yil 28 apreldagi
VI-47-34-11-166-K/22-son qaroriga
1-ilova

“Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash
jamg‘armasi Vasiylik kengashining

TARKIBI

1.	B.Hasanova	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Vasiylik Kengashi raisi
2.	Ya.Rasulov	Shahar xokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, Vasiylik kengashi raisining o‘rinbosari
Vasiylik Kengashi a‘zolari		
3.	N.Sultanov	Shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
4.	Q.Abdullayev	Shahar davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i
5.	L.Mamadjanov	Shahar Moliya bo‘limi boshlig‘i
6.	E.Turdimatov	Shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi raxbari
7.	O‘.Mahmudov	AT Xalq banki shahar filiali boshqaruvchisi
8.	K.Sirojiddinov	Shahar tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
9.	O.Ergasheva	Shahar oila va xotin-qizlar bo‘limi xodimi, Vasiylik kengashi kotibi
10.	X.Shermatov	“Muloqot” TV direktori
11.	M.Sultonov	“Qo‘qon sadosi” gazetasi bosh muxarriri